

MARKAZIY OSIYO – MINTAQAVIY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Esanov Dilshodbek Ilhomjon o'gli

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Tergov faoliyati 2-o'quv kursi kursanti

Botayev Murod Jumanshiqovich

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8173797>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarning integratsiyasi va o'zaro hamkorligining qanchalik dolzarbligi, o'zaro hamkorlikning zaruriyatlari va hamkorlikdan mintaqa mamlakatlariga keladigan foyda va manfaatlar haqida so'z yuritiladi.

KALIT SOZ'LAR: Markaziy Osiyo, integratsiya, muammolarni birgalikda bartaraf etish, tashqi xavf, ichki nizolar, yetakchilikka da'vogarlik, umumiy manfaatlar, o'zaro hamkorlik.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgandan so'ng oradan o'tgan uzoq davr mobaynida ular integratsiyasi deyarli rasmiyatchilikdan iborat bo'lib, yagona bozor, bojxona ittifoqi va yagona valyutaning shakllanish jarayoni esa deklarativ bo'lib qolayotgan edi. Mintaqada yetakchilik uchun raqobatning kuchayib borgani milliy identitetni shakllantirish maqsadida umumiy tarixni o'z millatini ustun qo'ygan holda talqin qilish, mamlakatlar islohotlar jarayonini sinxronlashtirish o'rniga turli islohot modellarini tanlashi ularni bir-biridan tobora uzoqlashtira boshladi va mintaqaviy hamkorlikni kun tartibidan chetga surib qo'ydi. Qayd etish joizki, integratsiya jarayoni "Turkiston – umumiy uyimiz" shiori ostida amalga oshirila boshlagan edi. Bu mintaqada tashkil topgan chegaralardan emas, aksincha, XX asr boshlaridagi hali milliy-hududiy chegaralar tortilmasidan burungi davrdan kelib chiqib qilingan ish edi.

Integratsiya bilan bog'liq voqealarning rivojida mintaqaga tashqi faktorlar – o'yinchilarning e'tibori oshishi rol o'ynadi. Masalan, Rossiya mintaqaga yaqin xorij/postsovet makonining bir bo'lagi deb qaragan va bu yerda o'z ta'sirini tiklashga urinayotgan edi. AQSH uzoq yillar mobaynida Afg'onistonni mintaqaning bir qismi deb hisoblovchi "Katta Markaziy Osiyo" konsepsiyasini va "Janubiy va Markaziy Osiyo" konsepsiyasini ilgari surib keldi. Xitoy esa ikki tomonlama munosabatlar o'rnatishni afzal bildi, mintaqaviy yondashuvni ishlab chiqishga unchalik qiziqish bildirmadi. Markaziy Osiyodagi beshta davlatni birlashtiruvchi mintaqaviy tuzilma yo'qligi sabab ushbu jug'rofiy makonda turli integratsiya va muloqot platmorfalarining turli-tuman mozaikasi shakllandi.¹

O'tgan yillarda mintaqadagi mamlakatlarning munosabatlarida o'ziga xoslik shakllanib, ayrimlari o'zaro yaqinlashish va hamkorlikni rivojlantirishga intilsa, ayrimlari bu jarayonda sustkashlik bilan ishtirok qila boshladilar. Buning natijasida, mintaqa davlatlari iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarida yuzaga kelgan muammolarni birgalikda hal etish imkoniyatidan yetarli darajada foydalana olmadilar. Bunga bir qator ichki va tashqi omillar sabab bo'lgan. Shu sababdan ham, mintaqa mamlakatlari integratsiyasiga to'sqinlik qilish jarayonlari turli suratlarda amalga oshirildi va ularning birlashuviga yo'l qo'yilmadi.

¹ <https://davr24.uz/archives/1279>

Mintaqa tinchligi va taraqqiyoti umumjahon barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Shu ma'noda, mintaqalarning hamkorligi zarur ahamiyat kasb etib, asrlar mobaynida ahillik va inoqlikda yashagan xalqlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik va taraqqiyotni ta'minlaydi. Birinchi prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va ishonch o'lg'a harakatlantiradi"².

Mintaqamizda hamkorlikka zaruriyat:

- mintaqalarning mustaqilligini mustahkamlash, davlatlarning suvereniteti daxlsizligini globallashtirish sharoitida kafolatlash;
- globallashtirishning salbiy oqibatlariga qarshi birgalikda kurashish va mintaqada yashayotgan xalqlarning o'ziga xosligini saqlab qolish;
- mintaqaning jahon tamaddunida mavqei mustahkamlash, mintaqaviy hamkorlik rivoji orqali jahonga yana Beruniylar, Ibn Sinolarning izdoshlarini yetkazish;
- ayrim hududlarda ma'naviy qashshoqlashuv kuchaygan bir sharoitda Markaziy Osiyo ma'naviy merosini rivojlantirish orqali bu qashshoqlashuvga qarshi tura oladigan potensialni shakllantirish;
- Markaziy Osiyo xalqaro maydonda o'z o'rnini, mavqei va nufuziga ega bo'lishi;
- xalqaro maydonda ko'p qutbli dunyoni shakllantirish uchun zarur.³

Mintaqamizning tarixi Markaziy Osiyo asrlar davomida madaniy-siyosiy jihatdan yaxlitlikka intilib kelganligidan guvohlik beradi. Jumladan, ajdodlarimiz asrlar osha yonma-yon yashab, bosqinchilarga qarshi birgalikda kurashishgan. Bugun biz ajdodlarimiz, yuksak yutuqlarni qo'lga kiritgan mintaqalarning davlatlari tajribalari va imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, Markaziy Osiyoda mintaqaviy yaxlitlikni vujudga keltirishimiz zarur. Bunday yaxlitlik mintaqaviy hamkorlik orqali ro'yobga chiqib, mintaqani va unda joylashgan davlatlarning obro'-e'tiborini oshiradi va xalqaro maydonda yetakchilar qatoridan o'rin olishiga

Birinchidan, mintaqalarning manfaatlari ustuvorligi asosida yetakchi davlatlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun birgalikdagi faoliyat strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Unda ma'lum sohada yetakchi davlatlarning ustuvorlikka erishishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida hamkorlik sohalarini o'zgartirib turishni inobatga olish muhim.

Ikkinchidan, muammolarni hal qilish orqali hamkorlikka emas hamkorlik orqali muammolarni bartaraf etish tamoyiliga amal qilishimiz ko'proq naf beradi. Chunki, hamkorlik yangi imkoniyatlar eshigini ochib, muammolar yechimiga xizmat qiladi. Ulkan GESlar qurilishi muammosini hamkorlikda mavjud kichik GESlarni modernizatsiya qilib foydalanish, muqobil energiya beruvchi texnologiyalarni joriy qilish yoki GESlardan keladigan foydani qoplashi mumkin bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali yechimiga erishiladi.

Uchinchidan, hamkorlik jarayonlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish maqsadga muvofiq. Dastlabki bosqichda Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekiston respublikalari potensialidan foydalanib hamkorlik jarayonlarini shakllantirish mumkin. O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston mintaqaviy gaz uyushmasini tuzish, o'zaro faoliyatlarni aynan ana shu orqali muvofiqlashtirish va kelajak strategiyasini ishlab chiqishi kerak. Markaziy Osiyo gaz uyushmasi (MOGU) ning asosiy vazifasi gazni qazib olish qayta ishlash va uni sotish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, strategiyani amaliyotga bosqichma bosqich tadbiq

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон. 1997. -Б.323.

³ О й б е к с и р о ж о в. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик жараёнлари (тажриба ва истиқбол)- Б- 204

etish, gaz xomashyosidan tayyor yoki yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiquvchi istiqbolli loyihalarni real hayotga joriy qilish bo'ladi. Mintaqaviy gaz uyushmasi tuzilsa Xitoy, Hindiston, Pokiston va G'arbga gaz quvurlarini tortish orqali kommunikasiya tizimini shakllantirish hamda kelgusida Buyuk ipak yo'lini qayta tiklash uchun yetarli moliyaviy va kommunikasion asos yaratiladi. So'ngra savdo,

xizmat ko'rsatish, mintaqaviy turizmni rivojlantirish imkoni bo'ladiki, aynan ana shu bosqichda Qirg'iziston va Tojikistonni ham bu jarayonga tortish imkoniyati vujudga keladi.

To'rtinchidan, hamkorlikni rivojlantirishda mintaqada iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish muhim. O'zbekiston bu sohada tashabbuskor bo'lishi zarur. Istiqbolda kim mintaqada xizmat ko'rsatish bozorida yetakchilik qilsa, mintaqaga ta'sirini kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mintaqada xizmat ko'rsatish bozori tashqi kuchlar tomonidan hali egallanmagan soha. Lekin istiqbolda bu sohani ham egallash uchun jiddiy qadamlar tashlanmoqda. Xitoy rahbariyati tomonidan ilgari surilgan "bir kamar – bir yo'l loyihasi" aynan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan.

Beshinchidan, mintaqadagi xizmat ko'rsatishning eng istiqbolli sohasi bu turizm hisoblanadi. Chunki bizda tabiiy sharoiti Yevropa tog'li turistik hududlari bilan raqobatlasha oladigan hududlarimiz (Tojikistonda) Misr va Turkiyaning dengiz turistik hududlari bilan raqobatlasha oladigan hududlarimiz (Qirg'izistonda Issiq ko'l,

Turkmanistonda Kaspiy dengizi atrofidagi Avaz turistik zonasi) va yurtimizda dunyoda noyob tarixiy obidalar joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari mavjud. Biz mintaqaga tashrif buyuruvchi turistga uch xil turistik sharoitni taqdim etish imkoniyatiga egamizki, bu dunyoda noyob hisoblanadi. Buning uchun avvalo mintaqaviy turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishimiz, infra tuzilma va

transport kommunikasiya tizimini rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilishimiz muhim. Mintaqaviy turizm ham Markaziy Osiyoda hamkorlikning kuchayishiga ijobiy ta'sir qiladi.⁴

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, xalqlar, millatlarning o'zaro hamkorligi obyektiv jarayon, unga amal qilmaslik taraqqiyot va milliy manfaatlariga mos kelmaydi. Bu omilning mintaqamizda joylashgan davlatlar uchun o'ta muhimligini bugungi shitob bilan o'zgarayotgan zamonda sodir bo'layotgan iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, milliy-ma'naviy qashshoqlashuv, millatlarning o'zligidan begonalashuvi kuchayganligidan ham bilib olish mumkin. Shu nuqtai nazarlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi va o'zaro hamkorligi mintaqada davlatlari uchun faqat ijobiy ahamiyat kasb etadi. Bu ahamiyat nafaqat ichki muammolarni o'zaro bartaraf etish, balki tashqi xavf-xatarlardan himoyalash imkoni beradi.

References:

1. <https://davr24.uz/archives/1279>
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон. 1997. -Б.323.
3. Ойбек Сирожов. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик жараёнлари (тажриба ва истиқбол)- Б- 204

⁴ Ойбек Сирожов. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик жараёнлари (тажриба ва истиқбол)- Б- 207-209

4. Ойбек Сирожов. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик жараёнлари (тажриба ва истиқбол)- Б- 207-209
5. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonning-mintaqaviy-siyosati-markaziy-osiyoda-barqaror-va-izchil-rivojlanishining-muhim-garovi>
6. Mirzahatamov, R. S. (2022). Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatida mintaqaviy hamkorlik. Oriental Journal of History, Politics and Law, 2(2), 164-170.

INNOVATIVE
ACADEMY